



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Abdirayimova Noila Komiljonovna**

*SamDU, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti, 2-bosqich  
magistranti*

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI KASBLAR OLAMI  
BILAN TANISHTIRISH PEDAGOGIKMUAMMO SIFATIDA**

## Annotation

Maktabdan tashqari ta'lism tizimiga ilg'or pedagogik usullar va metodlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning yangi shakllarini keng joriy etish. Kasb-hunarga yo'naltirish-buo'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug'ma layoqatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo'ladigan umuminsoniy madaniyat komponentlaridan biri bo'lgan umumlashtiruvchi tushunchalardir.

**Kalit so'zlar:** kasb tushunchasi, kasb-hunarga yo'naltirish, sinfdan tashqari ta'lism, maktabdan tashqari ta'lism, maktabgacha ta'lism, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma, kasbiy malaka.

Ma'lumki, qadim Turkistonda azal-azaldan farzandlarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni ilk yoshdanoq ilm-fan va ma'rifat sirlarini egallashiga katta e'tibor berilgan. Bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Muhammad Zahiriddin Bobur, Furqat va boshqalar asarlarida ustoz-shogird, kasb-hunar sirlari to'g'risida ko'plab materiallar keltirilgan. Hunarmandlar, ziyorilar va boshqa kasb-hunar egalarining sulolalari munosib baholangan va katta ahamiyat kasb etgan.

Kasb tushunchasi keng qamrovli tushuncha Bo'lib, maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati hisoblanadi. Har bir yosh avlod uchun to'g'RI tanlangan kasb-uning doimo SOG'lom Bo'lishi, kasb odobi va kasbiy



mas'uliyatni chin dildan his qilishi, o'z ishidan qoniqish hosil qilishi, davlati uchun maksimal darajada foydasi tegishi bilan harakterlanadi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kun yoshlarining kasbni to'g'ri tanlay olishi nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda 1998-2000-yillar mobaynida respublikada 315ta kasb-hunar kollejlar va litseylar qurilganligi va qayta rekonstruksiya qilinganligi hamda bu ko'rsatkich 2018/2019-yilga kelib 1537 taga yetganligini aytib o'tish lozim. Ulardan akademik litseylar soni 123 tani va kasb-hunar kollejlar soni - 1414 tani tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasida 2018/2019 o'quv yili boshiga 1414 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritgan bo'lsa, ularda 656,3 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, 454,9 ming nafar o'quvchi ta'lif muassasalarini bitirdi, biroq ta'lif muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimi hududlardagi iqtisodiy tarmoqlarning real ehtiyojlaridan ortda qolganligi, shuningdek, belgilangan qabul kvotalarida mehnat bozori kon'yukturasi va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish imkoniyatlari hisobga olinmasligi bitiruvchilarni ishga joylashtirishda ko'plab qiyinchiliklarni tug'dirdi. Kollejlardagi mavjud o'quv jarayonini tashkil etishning hozirgi holati, qo'llanilayotgan o'quv-normativ hujjatlar hamda o'qitish muddatlari kasblarning murakkablik darajasiga javob bermasligi, ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etishdagi kamchiliklar ta'lif sifati tushib ketishiga, bilim, malaka va ko'nikmani amaliyotga joriy eta olmaslikka hamda kollej bitiruvchilariga ehtiyojning pasayishiga olib keldi. Natijada, umumiy, o'rtalik va o'rtalik maxsus, kasb-hunar ta'lifi rivojlanishining tahlili tizim bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtoj ekanligini ko'rsatdi.

Aynan shu sababli 2019-yil 6-sentabrda O'zbekistan Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lif tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida 2020-2021 o'quv yilidan boshlab ta'lifning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rtalik va o'rtalik maxsus professional ta'lif tizimi hamda tabaqlashtirilgan ta'lif dasturlari joriy etiladigan ta'lif muassasalari tarmog'i tashkil etildi. Bunda kadrlarning mehnat bozorida to'laqonli o'rin egallashlari uchun professional ta'lif bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish ko'zda tutilgan.

Professional ta'lif **kasb-hunarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Kasb-hunarga yo'naltirish-bu** o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug'ma layoqatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo'ladigan umuminsoniy madaniyat komponentlaridan biri bo'lgan umumlashtiruvchi tushunchalardir. Kasb-hunarga yo'naltirish insonga kasbiy o'zligini anglashda va optimal bandlik turini tanlashda uning talab va imkoniyatlarini, mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni hisobga olgan holda maxsus ko'mak berish choralarini kompleksini amalga oshirishdir. Biroq umumiy o'rtalik maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetaricha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogic asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlammalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqaning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Shu sabab, o'sib kelayotgan yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish muammosi nafaqat jamiyat, balki har bir shaxs, oila uchun o'ta dolzarb va hayotiy ahamiyat kasb etadi.



Shu boisdan ham uzliksiz ta'lim tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi quv-tarbiya jarayonining o‘zi yosh avlodni ongli ravishda kasb-hunar tanlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Buning uchun yoshlardan tarbiyasida “Texnologiya” faniga hayotiy ehtiyoj sifatida qarashimiz lozim. Bu orqali o‘quvchini betartiblik va danganosalik kasalliklariga chalinishini oldini olibgina qolmay, uning kelajakdagi ma’lum bir kasb egasi bo‘lishiga zamin yaratamiz. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 9 500 dan ortiq umumiyligi o‘rtalikta ta’lim maktablarini har yili 500 000 ga yaqin o‘quvchi-yoshlardan bitirib, ularning 10-15 foizi ta’limning keyingi bosqichlarida (oliy ta’lim muassasalarida) o‘qishlarini davom ettirishadi. Qolgan 85-90 foiz bitiruvchilar o‘zlarining mehnat faoliyatlarini boshlashlari yoki professional ta’lim muassasalarida kasb-hunar o‘rganishlari uchun umumiyligi o‘rtalikta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Texnologiya” faniga ajratilgan soatlar hajmi, o‘quv dasturi mazmunini xorijiy mamlakatlarning ta’lim dasturlari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishni taqozo qiladi.

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda jumladan, Finlyandiya, Avstriya, Latviya, Norvegiya, Rossiya, Turkiya kabi davlatlarda o‘quvchi yoshlarga kasb ko‘nikmalarini shakllantirib borishda qo‘sishcha ravishda “Amaliy va kasbiy ko‘nikmalar” nomli fan o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda “Texnologiya” fani o‘quv dasturi mazmuniga 6 soatlik “Kasb tanlashga yo‘llash” mavzulari bilan chegaralanib qolingga. 8-9-sinflar uchun esa haftasiga 1 soatdan o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, “Texnologiya” fani 10-11-sinflarda esa joriy etilmagan. Rivojlangan xorij mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston umumiyligi o‘rtalikta ta’lim tizimida 10-11-sinf o‘quvchilari uchun “Texnologiya” fanini kiritish hamda unga haftasiga kamida 2 soatdan jami 136 soat ajratish, o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bugungi kunda ta’lim muassasasida ta’limning milliy modeli —shaxsni rivojlantirishga qaratilgan tizim sifatida har bir o‘quvchi (bog‘cha bolasi)ni ham aqlan, ham ma’nani rivojlanishi, o‘zligini namoyon qilishi, umuminsoniy va milliy madaniyat va san‘atning noyob namunalari bilan tanishtirish orqali yuksak madaniy salohiyatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o‘rin tutadi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.

Shu o‘rinda, “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatini himoya qilish, barkamol bo‘lib voyaga yetishini ta’minalash, yoshligidan qiziqqan kasbni tanlay olish va shu kasbga oid kerakli bilimlarni egallash borasida turli muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo‘lga qo‘yildi hamda muayyan natijaga erishildi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda “Yoshlardan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san‘at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishni oshirish bo‘yicha 5ta muhim tashabbusni amalga oshirish to‘g‘risida”gi masalalar ko‘rib chiqildi. Shu asosda boshlang‘ich sinflar uchun 5tashabbus asosida o‘tiladigan turli to‘garaklar ish rejaliari ishlab chiqildi: “Mohir qizlar”, “Sarishta qizlarjon”, “Jazzi qizaloqlar”, “Zumradoylar davrasi”, “Ertakchi bolajon”, “Rassomlik” to‘garaklar yo‘lga qo‘yildi.



2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 2- bob 14-moddasi Maktabdan tashqari ta’lim haqida bo‘lib unga ko‘ra:

bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo‘sh vaqt va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo‘nalishidagi maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin. Chunki maktabdan tashqari ta’lim bolalarga uzlusiz ta’lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma’naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan bo‘lib, bunday tashkilotlar jumlasiga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, “Barkamol avlod” bolalar maktablari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi..

Maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan 2020-yil 4-mayda qabul qilingan “Ilk qadam” o‘quv dasturining noyabr oy 4-haftasi davomida “**Kasblar**” mavzusi bo‘yicha bolalarni kasbga yo‘naltiruvchi mashg‘ulotlar olib boriladi. Bu mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim ishtirokchilarining 6-7 yoshli bolalar guruhiga mo‘ljallangan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida erta kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bolalarda insonlar-turli kasb egalari haqidagi bilim va tasavvurlarning rivojlanishi va shakllanishi;
- Bolalarda turli hamda keng tarqalgan kasblarga qiziqishini rivojlantirish va unga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- Kattalar mehnati, mehnat natijasi, mehnat qurorollari haqidagi birlamchi tasavvurlarni mustahkamlash uchun sharoit yaratish;
- Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida mehnat tushunchalari va malakalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash yuzasidan ota-onalarga tavsiya berish.

#### ***Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlaring uslubi va vositalari:***

- Kasb-hunarga yo‘naltirish haqida hikoyalari, suhbat, she‘rlar, topishmoqlar, kitoblar (katta bog‘cha yosh davriga xos bo‘lgan bolalarga tushunarli tilda kasbiy ma‘lumot berish);
- Kasbga yo‘naltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlar, slaydlar, video filmlar namoyish qilish (katta yosh davriga xos bo‘lgan ko‘rgazmali-obrazli kasbiy ma‘lumot);
- Rivojlantiruvchi vao‘rgatuvchi kasbiy o‘yinlar (katta yosh davriga xos bo‘lgan kasbiy ma‘lumot, o‘yin, o‘quv va kommunikativ faoliyatlar bilan birgalikda);
- O‘quv darslari, mehnat darsi, konkurslar (maktabgacha yosh davrida mehnat va ijodiy o‘quv-o‘yin faoliyatining jarayonida kasbiy faoliyat);
- Ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (bolalarni kasbiy yo‘naltirish bo‘yicha tavsiyalar, kasbiy maslahat, kasbiy ma‘rifat, ularning bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirish, oddiy o‘yin, o‘quv, mehnat ko‘nikmalari va malakalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash).

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qaroriga 1-ilovasida 2020-2021-o‘quv yiliga bag‘ishlangan 1-4-sinflar uchun tayyorlangan “Tarbiya” darsligida “Kim bo‘lsam ekan?”-mavzusi asosidaboshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga



yo‘naltiruvchi savollar va rasmlar keltirilgan. Ushbu savollar va rasmlar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarda keljakdagi sevgan kasbini tasavvur qila olishga undaydi. Darslikda mavzu doirasida amaliy topshiriq berilishi va bu topshiriq orqali o‘quvchi tanlagan kasbi egasisifatidao‘zini ko‘ra oluvchi yoki kasb tanlashda ikkilanayotgan bo‘lsa, birlamchi fikrga kelishiga yordam beruvchi bo‘lishi lozim. Shuningdek, bu fanning yangiligi hamda zamonning shiddat bilan o‘zgarib borayotganini hisobga olgan holda, darslikka yangi kasblar, jumladan, “marketolog”, “loyiha injeneri”, “dasturchi” kabi kasblar haqida ma’lumotlar, kasbni egallashga doir bola yoshiga mos psixologik treninglar kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘ldi.

Shuningdek, 1-4-sinfda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun mehnat darsi hamda sinf soatlari hisobiga kasb mavzusi haqida o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining“Maktabdan tashqari ta’lim tizimini takomillashtirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga ko‘ra Xalq ta’limi sohasidagi maktabdan tashqari ta’lim tizimining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 30-sentabrdagi pq-4467-son qarori ijrosini ta’minalash nazarda tutiladi. Ushbu qarorga ko‘ra quyidagilar maktabning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- yosh avlodning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini ta’minalash maqsadida ularning robototexnika, mexatronika, injenerlik, mental arifmetika, san’at, art dizayn, axborot texnologiyalari bo‘yicha Java, Scratch, 3D dizayn yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqishini oshirish;
- maktablarda “STEAM — ta’lim” (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — muhandislik, Art — san’at, Mathematics — matematika) dasturini joriy etish va to‘garaklar mazmuniga singdirish;
- o‘quvchi yoshlarning ijodiy ishlarini ommalashtirish, “Art shop” elektron do‘konlari orqali dunyo bozoriga olib chiqish;
- o‘quvchilarda jonajon o‘lka tarixi, arxeologik va boy madaniy merosini chuqur o‘rgatish, mamlakatimizning tabiiy boyliklari bilan tanishtirishda ekskursiya va loyihalarini amalga oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik usullar va metodlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning yangi shakllarini keng joriy etish;
- to‘garak rahbarlarining malaka oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha istiqbol rejalarini ishlab chiqish va tegishli takliflarni kiritish;
- bolalar texnik ijodkorligini rivojlantirish uchun xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida maktablarda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida loyihalarini amalga oshirish.

Maktab o‘zining asosiy maqsadlarini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ to‘garaklar o‘quv-reja va dasturlari ishlab chiqishda ko‘maklashadi;



- ✓ o‘quvchilarni to‘garaklarga qamrab olish choralarini ko‘radi, to‘garak mashg‘ulotlarini tahlil qilib boradi, rivojlanishdan ortda qolayotgan to‘garaklar faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- ✓ maktabda “Ochiq eshiklar” kuni tadbirlarini alohida jadval asosida tashkil etadi;
- ✓ uslubchilar va to‘garak rahbarlari uchun har chorakda turli o‘quv-seminarlar, vebinar mashg‘ulotlari o‘tkazadi;
- ✓ festival va tadbirlarni sifatli o‘tkazilishi bo‘yicha ssenariylar ishlab chiqadi va tadbirlarni tashkil etadi;
- ✓ o‘quvchilarning mактабдан ташқари та’лимга қо‘йилган давлат талаблари асосида to‘garaklar o‘quv rejaning o‘zlashtirilishini monitoring qilib boradi;
- ✓ to‘garak rahbarlari ishlarini ommalashtirishga va ularning istiqboldagi vazifalarini bajarilishida amaliy yordam ko‘rsatadi;
- ✓ tanlov va tadbirlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib boradi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, umumta‘lim maktablarida boshlang‘ich sinfdan o‘quvchilarning iqtidori, qobiliyati va tanlovi asosida ma’lum kasbga yo‘naltirish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, kasbiy qobiliyatlarini shakllantira oladigan to‘garaklarga jalb etish kerak. Buni ijobjiy hal etish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga, mehnat o‘qituvchisiga, to‘garak rahbarlariga, ota-onalar, mahalla va keng jamoatchilikning o‘zaro hamkorligiga bog‘liq.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bolaga faqat u yoki bu kasb-hunar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni berish, uni kasb-hunarga qiziqtirish bilan chegaralanmasdan, bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish jarayonidir. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ko‘zda tutilgan uzuksiz ta’lim tizimi, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasasi, mакtab ta’limini rivojlantirish davlat umummilly dasturi doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan misli ko‘rilmagan bunyodkorlik ishlari xalq ta’limi tizimini ham modernizatsiyalashga asos bo‘ldi. Ayniqsa, o‘quv-tarbiya jarayonining moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, uzuksiz talim tizimi mazmunini takomillashtirish yuzasidan DTSlari, o‘quv dasturlari va ularga mos darsliklarning yangi avlodni yaratildi, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, ularga metodik xizmat ko‘rsatish va malakasini uzuksiz oshirish uchun barcha sharoitlar yaratib berildi.

Mamlakatda jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bugungi kunda ta’lim mazmunini yanada takomillashtirish bilan uning samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishni taqozo etmoqda.

Ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblangan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlariga ham innovatsion tus berish, uning samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan zamonaviy pedagogik-psixologik, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-uslubiy ta’limot va kadrlar salohiyatini yaxshilash, jarayonga jamoatchilik hamda ota-onalarni faol jalb etish zaruriyat mavjud.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish murakkab va kompleksligi tufayli uni muvaffaqiyatli hal qilish to‘garak o‘qituvchilarining yoki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining g‘oyaviy-siyosiy tayyorgarlikka, nazariy-metodik (pedagogik-psixologik) tayyorgarlikka va ilmiy-texnik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari bilan bog‘liqidir. Shuningdek, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tayyorgarligi ijtimoiy-iqtisodiy turkum fanlar (o‘zbekiston tarixi,



falsafa, axloqshunoslik, siyosiy iqtisod va h.k.)ni o‘rganish bilan ta‘minlanadi. O‘quvchilarni to‘g‘ri kasb tanlashlarini amalga oshirishda o‘qituvchi egallashi zarur bo‘lgan pedagogik-psixologik tayyorgarlik pedagogika, psixologiya va metodika turkum fanlarini o‘rgangan bo‘lishi lozim.

Biroq o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘zi qiziqqan kasbga yo‘naltirishda yoki ma’lum bir kasbga qiziqtirishda amaliy faoliyatlarida politexnik mazmundagi va kasb tanlash harakteriga ega bo‘lgan masalalar bilan sug‘orilgan dars ishlanmalarning tayyorlamasligi, moddiy ishlab chiqarishning turli sohalarida ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etilishiga mos ravishda dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning politexnik saviyasini kengaytirishga e’tibor berilmagasligi muammo bo‘lib qolmoqda. Umumta‘lim predmetlari, shu jumladan mehnat ta‘limi bo‘yicha dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida eng muhimi o‘quvchilar ko‘z o‘ngida fan asoslarining, ularning qonunlari va ushbu qonunlarga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlarini yoritish orqali u yoki bu kasb kishisi mehnatining ilmiy asosini tushuntirilmasligi o‘quvchilarni to‘g‘ri kasb tanlay olmasligiga olib kelmoqda.

Xulosa shuki, mehnat va kasb-hunarga bo‘lgan muhabbat, e’tiqod barcha o‘quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun, fan o‘qituvchilari va sinf rahbarlari fan doirasidagi, mehnat va kasb-hunarga oid bilimlarni uyg‘unlashtirish pedagogik ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2019-y 4-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-637-son 23.09.2020
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash ularga, ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 14-avgustdagqi PQ-3907-son qarori
4. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida “gi 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4997-son farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Maktabdan tashqari ta‘lim tizimini takomillashtirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28.05.2021
6. Shodihev N. Sanoat ishchi kasblari. O‘qituvchilar vao‘quvchilar uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 93 b.
7. Shodihev N. Maktab o‘quvchilarini matematika darslarida va sinfdan tashqari mashgo‘ulotlarda ommaviy ishchi kasblarga yo‘llash. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1989. – 112 b.
8. Shodihev N. B.Islomov, M.To‘lkuniylar bilan hamkorlikda. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish.-Uslubiy qo‘llanma.- Samarqand, 2016.-134b.
9. Ro‘ziyev E.T. Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mehnat tarbiyasi berish va kasbga yo‘llash ishiga tayyorlash. Ped.fan.nom. avtoreferati.- T.: 1992.-19b.
10. Толаганов Т.Р. Профессиональная направленность математической подготовки будущих учителей. Дис. док. пед. наук. – Т., 1989. – 455 с.